

**O'ZBEKISTONDA MULKNI DAVLAT TASARRUFIDAN
CHIQRISH VA XUSUSIYLASHTIRISH JARAYONI, AMALGA
OSHIRILISH SHAKLLARI VA BUNING IQTISODIY AHAMIYATI**

*Ibragimov G'anijon G'ayratovich- TDIU, "Innovatsion
Menejment" kafedrası PhD dotsenti,*

*Pardaboyev Mirjahon Homidjon o'g'li- TDIU, "Menejment"
Fakulteti, 3-kurs talabasi*

Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish – davlat iqtisodiy faoliyatining ko'lamini ishlab chiqarish va bozor iqtisodiyotini rivojlantirish iqtisodiyotini amalga oshirish majmui sifatida qaraladi. Maqolada bu jarayonning asosiy bosqichlari, usullar va huquqiy-me'yoriy tayanch ko'rib chiqish. Xususiylashtirishning iqtisodiy ahamiyati, iqtisodiy, samaradorlikni tiklash, investitsiyalarni jalb qilish, oddiy muhitni boshqarish va yangi ish o'rinlarini olish bilan bog'liq holda muhokama qilingan. O'zbekistonda xususiylashtirishning zamonaviy tendentsiyalari va kelajakdagi istiqbollari aniq tahliliy maqolalar taqdim etilgan.

Kalit so'zlar: *Xususiylashtirish, iqtisodiyot, davlat, investitsiya, aksiya, samaradorlik, davlat korxonalari, aktivlar, mulk, auksion.*

Kirish. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki xususiylashtirish bu – iqtisodiy islohotlarning tamal toshidir. Xususiylashtirish siyosati ya'ni davlat tashkilotlari mulkini tadbirkorlarga sotish hozirgi kunda siyosiy va iqtisodiy jarayon sifatida dunyo miqyosida keng qamrovda amalga oshirilmoqda. Xar qanday jamiyatning iqtisodiy tuzilishi mulkchilikdan boshlanadi. Odamlarning mulki qancha ko'p bo'lsa, davlat ham shuncha boy bo'ladi yoki aksincha, davlat qancha boy bo'lsa, aholining mulki ham shuncha ko'p bo'ladi, farovon yashaydi. Mustaqillikka erishilgach mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish ishlari jadal tarzda amalga oshirildi. Bu ishlarni amalga oshirishdan ko'zlangan asosiy maqsad qarovsiz holda bo'lgan bino va inshootlar negizida zamonaviy va raqobatbardosh

mahsulotlarni tayyorlovchi yangi ishlab chiqarish quvvatlarini barpo etib, qo'shimcha ish o'rinlarini yaratishdir. Bu esa, o'z navbatida, bozorlarni xaridorgir va import o'rnini bosuvchi ko'plab yangi turdagi tovar hamda mahsulotlar bilan boyitish, eng muhimi, aholi bandligini oshirish va turmush farovonligini bundanda yuksaltirishga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 14-fevraldagi O'RQ-907-son Qonunida¹ davlat mulkini xususiylashtirish sohasini tartibga solish, xususiylashtirish jarayonini amalga oshirish tartibi va usullari, davlat unitar korxonasini va davlat muassasasini xususiylashtirishning o'ziga xos xususiyatlari, davlat mulkini xususiylashtirishda talablar, xususiylashtirilgan davlat mulkiga bo'lgan mulk huquqlarini ro'yxatdan o'tkazish hamda davlat mulkini xususiylashtirish sohasida ochiqlikni ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar ko'rsatilgan. Hozirgi kunda tez sur'atlarda rivojlanayotgan iqtisodiyotda O'zbekiston Respublikasi milliy iqtisodiyotini rivojlantirish eng asosiy vazifalardan biri bo'lib kelmoqda va bu vazifaning yechimi sifatida davlat mulkini xususiylashtirish, aholidagi ortiqcha mablag'laridan unumli foydalanish namoyon bo'ladi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. Ta'kidlash joizki, O'zbekiston Respublikasining iqtisodiyotni rivojlantirishga oid qonunlari qabul qilingani mamlakatimiz milliy iqtisodiyotini rivojlantirish, samarali islohotlarni amalga oshirish, bu borada takliflar berishda amaliy ahamiyatga ega. O'zbekistonda mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish jarayonlari darajasi ko'plab qonuniy va tahliliy hujjatlar, ilmiy adabiyotlar mavjud. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-oktabrdagi "Davlat ishtirokidagi korxonalarni isloh qilishni jadallashtirish hamda davlat aktivlarini xususiylashtirishga oid chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-6096-son² farmoniga

¹ O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 14-fevraldagi O'RQ-907-son qonuni <https://lex.uz/docs/-6800515>

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-oktabrdagi PF-6096-sonli farmoni <https://lex.uz/ru/docs/-5068824>

muvofig hamda iqtisodiyotga xususiy investitsiyalarni jalb qilishni jadallashtirish maqsadida xalqaro konsalting, auditorlik va investitsiya maslahatchilari, investitsiya banklari va boshqa ixtisoslashgan kompaniyalarni (keyingi o‘rinlarda — professional tashkilotlar) jalb etgan holda davlat aktivlarini xususiylashtirishning zamonaviy usullarini joriy etish amaliyoti boshlash joriy etilgan.

O‘zbekistonda xususiylashtirish jarayoni haqida yozilgan kitoblardan biri — "Xususiylashtirish va uning iqtisodiy ta'siri" (muallif: Akmaljon Shukurov). Ushbu kitob O‘zbekiston iqtisodiyotidagi xususiylashtirish jarayonini tahlil qiladi va uning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy ta'sirlarini o‘rganadi. Kitobda keltirilgan faktlar va tahlillar xususiylashtirishning murakkabligini va uning iqtisodiyotga ta'sirini yaxshi tushunishga yordam beradi. Ushbu kitob O‘zbekiston iqtisodiyotidagi o‘zgarishlarni yanada chuqurroq o‘rganmoqchi bo‘lganlar uchun qimmatli resursdir.

Shuningdek, tadqiqot jarayonida foydalanilgan adabiyotlardan yana biri "Iqtisodiyot nazariyasi" — mashhur iqtisodchilar Paul Samuelson va William Nordhaus tomonidan yozilgan asar bo‘lib, u iqtisodiyotning asosiy tamoyillari va nazariyalarini o‘z ichiga oladi. Ushbu kitob xususiylashtirish jarayonini chuqurroq tushunishga yordam beradi va iqtisodiyot, siyosat va ijtimoiy masalalar bilan bog‘liq keng qamrovli ma'lumotlar taqdim etadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ilmiy maqolada ko‘tarilgan muammoni atroflicha tahlil qilish, tizimlashtirish asosida ilmiy asoslangan xulosa va tavsiyalar ishlab chiqishda induksiya va deduksiya, maqsadli ishlab chiqish, tizimli va qiyosiy tahlil, grafik tasvirlash, ekspert bahosi va iqtisodiy statistika kabi usullardan keng foydalanildi.

Natija va muhokama. O‘zbekistonda mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish bozor iqtisodiyotiga o‘tish davridagi asosiy islohotlardan biri sifatida amalga oshirilmoqda. Bu jarayon davlat mulkini samarali boshqarishni ta‘minlash, iqtisodiyotni liberallashtirish va xususiy sektorni rivojlantirishga qaratilgan. Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish

davlatning iqtisodiyotdagi ishtirokini kamaytirish jarayoni hisoblanadi. Xususiylashtirish esa davlat mulkini xususiy shaxslar yoki tashkilotlar ixtiyoriga berish orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi. O‘zbekistonda mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning asosiy negizini mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va uni xususiylashtirish tashkil etadi. Amalda bu O‘zbekistonni bozor iqtisodiyotiga o‘tishida mulkchilik masalalarini hal etish hamda xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning asosiy yo‘li hisoblanadi. Ana shu yo‘nalishlarda keng ko‘lamda chora-tadbirlarni amalga oshirishning asosiy tamoyillari va strategik vazifalari mamlakatimiz birinchi Prezidenti I.A.Karimov tomonidan asoslab berilgan va bu usullar orqali hozirda ham mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish siyosati Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan amalga oshirilmoqda.³ Ushbu jarayonning asosiy maqsadlari quyidagilardir:

- Bozor iqtisodiyoti mexanizmlarini shakllantirish;
- Xususiy sektor ulushini oshirish;
- Davlat korxonalarini samarali boshqaruvga o‘tkazish;
- Raqobatbardosh muhit yaratish.

Xususiylashtirishning shakllari turli-tuman bo‘lib, ularni uchta guruhga bo‘lish mumkin yoki boshqacha aytganda, xususiylashtirishning uch usuli bo‘lib, muvofiq ravishda qator uslublarni o‘z ichiga oladi:

1. Davlat mulkini bepul bo‘lib berish:

- mehnat jamoalariga bepul topshirish;
- barcha jamiyat a‘zolariga bepul bo‘lib berish;
- aholining ayrim sotsial qatlamlariga bepul berish;
- har bir jamiyat a‘zosining davlat mulkiga qo‘shgan hissasiga, ya‘ni mehnat stajiga qarab bo‘lib berish;
- foyda keltirmayotgan korxonani istisno tariqasida mehnat jamoasiga bo‘lib berish.

2. Davlat mulkini sotish orqali xususiylashtirish:

³ <https://kun.uz/uz/news> sayti ma‘lumotlari asosida

- mehnat jamoalariga sotish;
- barcha jamiyat a'zolariga sotish;
- auksionlarda (kim oshdi) fuqarolarga yoki yuridik shaxslarga sotish;
- xorijdan qarzni uzish evaziga chet el firmalari va fuqarolariga berish;
- ayrim sotsial qatlam: tadbirkorlar va menejerlarga sotish;
- davlat korxonalarini xususiy investirlash yoki mulkni to'g'ridan-to'g'ri sotib olish;
- aksiya paketini sotib olish yo'li bilan amalga oshirish;
- davlat korxonasini alohida bo'linmalarga ajratish yoki bo'lish va qayta qurish yo'li bilan qismlarga bo'lib sotish va hokazolar.

3. Davlat mulkini bepul bo'lib berish bilan sotishni birgalikda qo'shib olib borish. Bu usulning ham qator uslublari bo'lib, u yuqoridagi har ikki usulga xos uslublarning turli kombinatsiyalaridan iborat.⁴

1992-1993-yillar xususiylashtirishning birinchi bosqichini o'z ichiga olib, bu bosqichda xususiylashtirish jarayoni umumiy uy-joy fondini, savdo, mahalliy sanoat, xizmat ko'rsatish korxonalarini hamda qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlash tizimini qamrab oldi. Davlat ijtimoiy dasturida belgilab berilgan ikkinchi bosqich 1994-1995-yillarga to'g'ri keldi. Bu bosqichda ko'plab o'rta va yirik korxonalar aksiyadorlik jamiyatlariga aylantirildi hamda ulaming aksiyalari respublika qimmatli qog'ozlar bozorining asosini tashkil etdi. Davlat mulki aksiyadorlikka aylantirilishi bilan bir qatorda kichik xususiy biznes korxonalarini tashkil qilish jadallashtirildi. Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirishning bu bosqichida ochiq turdagi aksiyadorlik jamiyatlarini vujudga keltirish, davlat mulkini tanlov asosida hamda kim oshdi savdosida sotish amaliyotga joriy qilindi. Respublika iqtisodiyoti 1996-yildan boshlab mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirishning uchinchi bosqichiga kirdi. Bu bosqich davrida (1996-1998-yillar) xususiylashtirilmaydigan obyektlar ro'yxatiga kirmagan barcha obyekt va korxonalar (jami 3146 ta) davlat

⁴ Xodiyev B., Shodmonov Sh., iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. "Barkamol fayz media" nashr, 2017. 99-bet

tasarrufidan chiqarildi. Natijada 1997-yilda savdo-sotiq hajmi va umumiy ovqatlanish mahsulotlarining 95 foizdan ortiqrog'i davlatga qarashli bo'lmagan sektorga to'g'ri keldi.⁵ Mamlakatimizdagi davlat korxonalarini xususiylashtirishning 1995-2003-yillarda 17836 ta davlat obyekti xususiylashtirilib, ular asosida 16852 ta nodavlat mulkidagi korxonalar tashkil etilgan. Jumladan, ushbu korxonalarining 3667 tasi (21,8%) aksiyadorlik jamiyatlari, 10138 tasi (60,2%) Xususiy korxonalar, 3047 tasi (18,1%) boshqa shakldagi korxonalardan iborat. Bu davrda xususiylashtirishdan tushgan mablag'lar hajmi 167,3 mlrd. so'mni tashkil etgan.⁶ O'zbekistonda davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish jarayonlarining hozirgi - beshinchi bosqichi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003-yil 24-yanvardagi « O'zbekiston iqtisodiyotida xususiy sektorning ulushi va ahamiyatini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni bilan bog'liq. Mazkur farmon asosida iqtisodiy nochor korxonalarni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish jarayonini jadallashtirish, shuningdek, mazkur korxonalarni modernizatsiyalash va barqaror rivojlantirish uchun to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni jalb etish maqsadida xususiylashtirilgan obyektlarga narx belgilashning samarali mexanizmi joriy etildi. O'zbekiston Respublikasi davlat aktivlarini boshqarish agentligining ma'lumotlariga ko'ra, 2022-yilning yanvar-dekabr oylarida 515ta (dastur doirasidagi va dasturdan tashqari obyektlarni qo'shgan holda) korxonalar va obyektlar xususiylashtirildi.

Xususiylashtirishning asosiy ko'rsatkichlari:

(2022-yilning yanvar-dekabr holatiga ko'ra)⁷

Hududlar kesimida:	Xususiylashtirilgan korxonalar va obyektlar soni	Davlat aktivlarini sotishdan olingan tushumlar
--------------------	--	--

⁵ Jo'rayev T., Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. "Fan va texnologiya" nashr, 2018. 62-bet.

⁶ Shukurov A. "Xususiylashtirish va uning iqtisodiy ta'siri". Darslik. "Zamin nashr" nashri, 2023-yil.

⁷ <https://Stat.uz> sayti ma'lumotlari asosida { 118 }

Birlik		Jamiga nisbatan foizda	Birlik (mlrd. so'mda)	Jamiga nisbatan foizda
O'zbekiston Respublikasi	515	100.0	6651.0	100.0
Qoraqalpog'iston Respublikasi	26	5.1	48.3	0.7
Andijon	46	8.9	48.7	0.7
Buxoro	18	3.5	83.6	1.3
Jizzah	21	4.1	18.6	0.3
Qashqadaryo	29	5.6	55.1	0.8
Navoiy	19	3.7	48.8	0.7
Namangan	42	8.2	24.9	0.4
Samarqand	49	9.5	93.2	1.4
Surxondaryo	32	6.2	34.7	0.5
Sirdaryo	11	2.1	8.6	0.1
Toshkent viloyati	33	6.4	125.0	1.9
Farg'ona	74	14.4	70.1	1.1
Xorazm	81	15.7	87.3	1.3
Toshkent shahri	34	6.6	1222.0	18.4
Agentlik markaziy apparati	-	-	4682.1	70.4

Hozirgi kunga kelib mamlakatimizda amalga oshiriliyotgan xususiylashtirish ishlarining aksariyati davlat aktivlarinini boshqarish agentligi tomonidan amalga oshirilmoqda.

Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirishga bir necha usullar orqali erishsa bo'лади. Bu usullar jahon standartlariga ko'ra asosiy 6 ta turga bo'linadi:

- Mulkni to'g'ridan-to'g'ri sotish. Mulkni to'g'ridan-to'g'ri muzokaralar orqali sotish xususiylashtirishning eng ommabop usullaridan biri hisoblanadi. Bu hukumat yoki davlat tashkiloti investorga mulkni pul mablag'iga sotishi orqali amalga oshadi. Bunda keyingi daromaddan hech qanday ulush davlatga tegishli bo'lmaydi. Natijada iqtisodiyotda davlat o'rnini kamayadi, mulkdorlar va investorlar o'rnini esa oshadi

- Ommaviy tender. Biznes egalari ommaviy tender davomida o'z bizneslarining ma'lum bir qismini foydali taklif evaziga sotishi mumkin. Bunda sotib oluvchiga bir qancha talablar va majburiyatlar yuklatiladi.

- Infratuzilma hamkorligi. Infratuzilma sherikchiligi ham xususiylashtirishning bir turi hisoblanadi. Nomidan ham bilishimiz mumkinki, bunda davlat va xususiy sektor sherikchiligi yirik infratuzilmaviy loyihada ishtirok etadi. Shuningdek, bu usulda soliqlar ham aynan bir tomonga yuklatilmaydi va biznes riski har ikki tomonga taqsimlanadi.

- Ommaviy auksion. Keyingi usul bu ommaviy auksion usuli hisoblanadi. Ya'ni hukumat yoki davlat idorasi mulkni eng baland narxda sotish uchun auksion ya'ni kim oshdi savdosi o'tkazadi. Bu usul orqali mulkni to'laqonli yoki ma'lum bir qismini sotish mumkin.

- Sotib olish huquqi orqali ijaraga berish. Hukumat ba'zida mulkni sotib olish imkoniyatini berib ijaraga beradi. Ijaraga ishlatish jarayonida tadbirkor ma'lum qoidalarga amal qilishi lozim va ma'lum mablag'ni to'laganidan so'ng mulkdan mustaqil foydalanish huquqini oladi.

- Moliyaviy biror topshiriqni xususiy sektorga topshirish. Hukumat tashkilotlari xususiy korxonalar bilan ma'lum bir vazifani bajarishda shartnoma tuzishi mumkin.⁸

⁸ <https://ppp.worldbank.org/public-private-partnership> sayti ma'lumotlari asosida

Xulosa. O‘zbekiston Respublikasida mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish jarayoni 1990-yillardan boshlab amalga oshirilmoqda. Bu jarayon, avvalo, iqtisodiy islohotlar va bozor iqtisodiyotiga o‘tish maqsadida olib borilgan. Mulkni xususiylashtirish orqali davlat mulkini samarali boshqarish, iqtisodiy o‘shishni ta‘minlash va shaxsiy tadbirkorlikni rivojlantirish maqsad qilingan.

Xususiylashtirish jarayoni bir nechta shakllarda amalga oshiriladi: to‘g‘ridan-to‘g‘ri sotish, tenderlar, aktsiyalarni chiqarish va boshqa usullar. Har bir shaklning o‘ziga xos afzalliklari va kamchiliklari mavjud bo‘lib, bu esa jarayonning samaradorligini belgilaydi.

Iqtisodiy ahamiyati jihatidan, mulkni xususiylashtirish O‘zbekiston iqtisodiyotining liberallashtirilishi, raqobat muhitining rivojlanishi va investitsion faoliyatning oshishiga olib kelmoqda. Bu jarayon, shuningdek, yangi ish o‘rinlari yaratish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va xalq farovonligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonda mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish jarayoni iqtisodiy islohotlarning ajralmas qismi bo‘lib, mamlakatning barqaror rivojlanishi va raqobatbardoshligini ta‘minlashda katta ahamiyatga ega. Bu jarayon davomida yuzaga kelayotgan muammolarni hal etish va samarali boshqaruv tizimini yaratish esa kelajakda muvaffaqiyatli natijalarga erishishda muhimdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI:

1. “Davlat ishtirokidagi korxonalarni isloh qilishni jadallashtirish hamda davlat aktivlarini xususiylashtirishga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 27-oktabrdagi PF-6096-sonli farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 14-fevraldagi O‘RQ-907-son qonuni
3. Shukurov A. “Xususiylashtirish va uning iqtisodiy ta‘siri”. Darslik. “Zamin nashr” nashr, 2021. - 856 b.
4. Jo‘rayev T., Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. “Fan va texnologiya” nashr, 2018. – 512 b.

5. Xodiyev B., Shodmonov Sh., Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. “Barkamol fayz media” nashr, 2017. – 783 b.
6. P. Samuelson, W. Nordhaus. "Iqtisodiyot nazariyasi" 2009.
7. <https://ppp.worldbank.org>
8. <https://Stat.uz>
9. <https://kun.uz>